

TAFAKKUR ZIYOSI

TAFAKKUR ZIYOSI 2/2021
ilmiy uslubiy jurnal



БОШ МУҲАРРИР

Шавкат Шарипов –
педагогика ф. д., профессор

БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРЛАРИ

Усмонжон Қосимов – фил. ф. д.
Ғайрат Қодиров – биология ф. н., доц

МАСЪУЛ КОТИБ

Фаррух Ақчаев – тарих
ф. б. ф. д., (PhD)

ТАРЖИМОНЛАР:

Намоз Каримов,
Элдар Ҳасанов
(рус тили)

Камолиддин Нормуродов
(инглиз тили)

САҲИФАЛОВЧИЛАР

Гулжахан Кадирова
Адолат Ускинбоева

НАВБАТЧИ МУҲАРРИР:

Феруза Жумаева – филология
ф. б. ф. д., (PhD)

**Журнал андозаси Ахборот
технологиялари марказида**
Расулжон Мелиқузиёв
томонидан тайёрланди

Муассис - Жиззах давлат
педагогика институти

Журнал йилда 4 мартаба
(ҳар чоракда) чоп этилади.

Матнларда фойдаланилган кўчирма
ва маълумотлар аниқлиги учун
муаллифлар масъулдирлар.

Журналдан кўчириб босилганда
манба қайд этилиши шарт

ЖАМОАТЧИЛИК КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ

Анатолий Сагдуллаев – тарих ф. д., академик
Комилжон Тожибоев – биология ф. д., академик
Жак Микловик – INSHEA университети профессори (Франция)
Василий Кочурко – Баранович ДУ профессори, техника ф. д.
(Белоруссия)

Гулсем Лекерова – психология ф.д., профессор (Жануб.
Қозоғистон)

Фурқат Жўрақулов – сиёсий ф. д., доцент

Ботир Тўхтамишев – техника ф.н., доцент

Сарвар Назарқосимов – социология ф. б. ф. д.

Бахтиёр Тўраев – фалсафа ф.д., профессор

Холбўта Турақулов-техника ф.д., профессор

Бахти Очилова - фалсафа ф.д., профессор

Қозоқбой Йўлдошев – педагогика ф. д., профессор

Умрзоқ Жуманазаров – филология ф. д., профессор

Абдуғафур Маматов - филология ф. д., профессор

Раҳматулла Бекмирзаев – физика-математика ф. д., профессор

Ойбек Аҳмедов – филология ф.д., профессор ЎзДЖТУ

Фания Аҳмедшина – тарих ф. д., профессор

Ҳамид Мелиев – педагогика ф. н., профессор

Худойберган Мавлонов – биология ф. д., доцент

Қўчқор Ҳақимов – география ф. н., профессор в.б.

Исламов Илём – тарих ф. д., доцент

Рустам Абдурасулов – психология ф. д., доцент

Зухра Яхшиева – кимё ф. д., доцент

Мухторқул Пардаев - тарих ф. н., доцент

Раббим Юсупов – техника ф. н., доцент

Олег Ким – филология ф. н., доцент

Камолиддин Зойиров – педагогика ф.н., доцент

Абдували Шамсиев – иқтисод ф. н., доцент

Суннатулло Соипов – филология ф. н.

Юлдуз Каримова – филология ф. н., доцент.

Омон Исаров – филология ф. н., доцент.

Шерали Абдураимов – педагогика ф. б. ф. д., доцент

Фурқат Аҳмедов - педагогика ф.н., доцент

Тўйчи Аҳмедов – тарих ф.б.ф.д.

Журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий Аттестация комиссиясининг филология, фалсафа ва педагогика фанлари бўйича эксперт кенгаши (2018-йил 29-декабрдаги 260/6-сон баённомаси) тавсияси билан нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал Жиззах вилояти Ахборот ва оммавий коммуникациялар бошқармасидан 2020-йил 25-апрелда 06-042 рақам билан қайта рўйхатга олинган. Журналнинг халқаро ISSN рақами: 2181- 6131

МАНЗИЛ: 130100, Жиззах шаҳри,
Ш. Рашидов кўчаси, 4-уй, бош бино
ТЕЛЕФОН: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
ФАКС: (99872) 226 46 56

ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
МАТБАА БЎЛИМИ

Жиззах шаҳри, Шароф Рашидов кўчаси, 4-уй
2021-йил 25- март куни босмахонага топширилди.

Қоғоз бичими А4 Буюртма: ____
Нашр адади: 100

MUNDARIJA

TAQVIM:

Y.Karimova, U.Qosimov Qodiriy abadiyati.....	3
--	---

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

B.B.Abdug'aniyev Ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari.....	5
U.U.Jumanazarov "Raqamli ta'lim" muhitini tashkil etishning ustuvor vazifalari.....	9
G.N.Kurbanova, Sh.T.Yuldashova Talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ma'ruza mashg'ulotlarining ahamiyati.....	13
G.Abduraimova Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	16
Kh.Ganiyeva The signification of punctuation marks in emotiona expression in english.....	20
N.M.Axmedova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	23
G.N.Djurayeva Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani xorijiy til muloqotini o'qitish asosida takomillashtirish.....	26
R.T.Eshmamatov Ways of improving language skills on learner autonomy.....	30
O.A.Qo'ysinov Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda kompetentli yondashuv.....	33
Sh.Djamalidina Maktab adabiyot darslarida muammoli ta'limdan foydalanish.....	36

AMALIY FANLAR

F.Sh.Axmedov Dzyudochilarning musobaqa va mashg'ulot yuklamalarining qiyosiy tahlili.....	39
N.M.Avliyakulova Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish yo'llari.....	41

IJTIMOY FANLAR

Z.G'oziev So'fi olloyorning ijtimoiy-falsafiy merosini o'rganishga oid ba'zi mulohazalar.....	44
M.A.Sherboboyev Tanqidiy ratsionalizm ilmiy bilishning metodologik vositasi sifatida.....	47
Z.A.Bozorov Talabalarida fuqarolik madaniyatini shakllantirishda motiv va ehtiyojlarning ahamiyati.....	50
O.T.Sharipova "Rif'at shayx" kitobi xususida.....	53
S.Mavlanova Globallashuv davrida yosh avlodni milliy g'oya va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash muammolari.....	55
D.R.Yunusov Eramizdan oldingi davrlarda hurfiylik g'oyalari.....	59
S.U.Xodjanizayev Xorazm mutafakkirlarining tasavvufiy qarashlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari.....	62
J.X.Shodiyev, A.M.Mirkamilov Talabalar o'rtasida huquqiy ta'lim mazmunini takomillashtirish.....	66
Z.R.Eshmurodova Bolaga ism qo'yishning sharq va g'arbga xos etnografik xususiyatlari.....	70
S.T.Mamatkulov Shaxsda hayotiy pozitsiya shakllanishining e'tiqodlar tizimi bilan aloqadorligi.....	73

FILOLOGIYA FANLARI

3.Пардаева Художественный образ как форма отражения действительности.....	78
M.D.Abdullayeva "Shajarayi turk" da kichik epik janrlar.....	81
Sh.I.Botirova Adabiyot va adabiyot o'qitish metodikasi: uyg'unlik va farq.....	84
F.G.Sharipov Ayyub g'ulomovning so'z yasashiga doir qarashlari.....	88
D.N.Nusratilloeva Xurshid davron lirikasida davr va shaxs masalasi talqini.....	91
F.Jumayeva Ko'makchilarning semantik, sintaktik xususiyatlari.....	94
D.D.Muminova Nomalarning mavzu jihatdan farqlanishi.....	98
X.Xolmurodov Alisher navoiy she'riyatida epik talqinlarning lirik ifodasi.....	101
N.X.Kushvaktov M.R.Isaqlulov Said zunnunovaning "kechikish" hikoyasida jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari talqini.....	105

TABIIY VA ANIQ FANLAR

S.Sidiyarov Jamiyat rivojlanishida STEAM ta'limi metodining o'rni.....	108
M.Barakayev, A.Shamshiyev, G.Goyibnazarova Maktabda "logarifm"lar mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	111
S.S.Turdiyev O'quvchilarga geometrik masalalarni ishlashda konstruksiyalash usulidan foydalanishni o'rgatish.....	116
U.A.Soatov, K.S.Axadova Tenglama va tengsizliklarni yechishning ba'zi nostandart usullari haqida.....	118
Z.Sh.Alimardonov, S.H.Isakov Bo'lajak ofitserlarning o'q o'tish tayyorgarligi bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni.....	122
M.Sh.Ahadov Kimyo ta'limida "VR", "AR", "MR" va "3D" texnologiyalarining o'rni.....	127
S.N.Nosirov, D.D.Aroyev, A.A.Sobirov Ikki nuqta orasidagi masofaning ba'zi xossalari.....	131

YOSH TADQIQOTCHILAR

L.A.Xaitov Hakim termiziy ma'naviy merosida qalb tushunchasi.....	134
M.Ko'bayev Mashrab yashagan davrdagi madaniy-ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlari.....	137
A.A.Abdurahmonov Jadid matbuotida ta'lim-tarbiya masalalariga e'tibor.....	141
R.Ablyakimova Nodavlat maktablar va ularni o'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlari.....	144
D.B.Toshpulatova Globallashgan dunyoning metaforik obrazi.....	147
G.Esirgapova Modern she'riyatida ramz va falsafa.....	151
M.M.Yusupov Baholash - oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy o'zini o'zi belgilashini rivojlantirishning omili sifatida.....	155
K.A.Jo'rayev "Layli va majnun" tipidagi dostonlarning qiyosiy tadqiqi.....	160
Z.O'Sulaymanov "Nahj ul-farodis" - adabiy-badiiy asar.....	163
A.Erdem Oila a'zolari nomlari ishtirok etgan o'zbek xalq maqollari tadqiqi.....	167
N.K.Sabirova Ingliz va o'zbek tillarida paronimiya va omonimiya hodisalari.....	172

GLOBALASHGAN DUNYONING METAFORIK OBRAZI

Dilorom Bobonazarovna Toshpulatova - tadqiqotchi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani globallashgan dunyoga munosabat bildirayotgan obrazlarning faolligi, obrazlarning tasavvur dunyosida kechayotgan o'ylar, inson taqdiri haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Аннотация: В данной статье отражена деятельность образов романа Исаджона Султана "Вечный странник", отражающих его отношение к глобализированному миру, мысли о мире воображения, мысли о человеческой судьбе.

Abstract: This article reflects the activity of the images of Isajon Sultan's novel "The Eternal Wanderer", reflecting his attitude to the globalized world, thoughts about the world of imagination, thoughts about human fate.

Kalit so'zlar: roman, obraz, global jarayon, dunyo, tabiat, tasvir, ruhiyat, tafakkur, g'oya, inson qismati.

Ключевые слова: роман, образ, глобальный процесс, мир, природа, образ, дух, созерцание, идея, судьба человека.

Keywords: novel, image, global process, world, nature, image, spirit, contemplation, idea, human destiny.

Har qanday asarda inson va uning borlig'i, o'y-kechinmalarini ishonchli hamda obrazli ravishda, butun murakkabliklari bilan tasvirlash juda muhim sanaladi. Dunyo adabiyoti tarixida o'zining yaxlit poetik konsepsiyasi bilan umuminsoniy g'oyalarni targ'ib-tashviq qiladigan, shuningdek, har bir individual insonning ichki va tashqi olamini, tafakkur dunyosini o'z ta'sir kuchi bilan egallashga munosib badiiy asarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, dunyo adabiyoti tarixida hayotning keng qamrovli global manzaralarini, tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni, shu bilan birga barcha davr insonlari uchun muhim sanalgan ijtimoiy-maishiy muammolarni badiiy talqin etgan romanlar sinchkov o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi; tahlillari har doim adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida turadi. Asar markazida turadigan har bir personajning bunday real, ta'sirli va esda qoladigan ifodasi talantli muallifning o'tkir qalami tomonidan teran va puxta-pishiq ishlangan bo'lishi lozim. Shunda roman voqea-hodisalari ichida harakat qilayotgan, boshqalar bilan muloqotga kirishayotgan inson obrazi to'laqonli ko'rinish kasb etadi. Masalan, dunyoga mashhur fransuz romanchiligida V.Gyugo, O.Balzak, J.London, E.Zolya, G.Mopassan, E.Hemenguey, kabi adiblar o'z romanlarida insonning kundalik hayotdagi turmush tarzini, tabiat bilan munosabatini realistik, ba'zan naturalistik chizgi va bo'yoqlar asosida tasvirlangani ma'lum. Dunyoga mashhur N.V.Gogol, L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, I.Turgenevlar kabi ijodkorning romanlari ruslar ijtimoiy hayotining juda muhim qirralarini yoritgani hamda insonning ruhiy-psixologik kayfiyatini juda aniq tasvirlangani uchun uzoq yillardan beri o'z qadr-qimmatini saqlab keladi.

Bu romanlar markazida inson obrazi va uning individual olami mujassamdir. Aslida, har qanday epik tafakkur mahsuli bo'lgan asarlar markazida inson harakatlanishi kerak. Shu jihatga ko'ra nazariy adabiyotlarda badiiy obrazning o'ziga xosligi bir nechta nuqtayi nazardan o'rganiladi. Tarixiy obrazlarda har bir hududning o'tmishi o'sha tanlangan obrazlar fonida yoritiladi; deylik, o'quvchi bir tomondan tarixiy voqelikdan saboq olsa, ikkinchidan, insonning dardu alamiga sherik bo'ladi. Zamonaviy qahramonlar esa o'z davrining muammolarini ko'tarib chiqadi. Ayrim ramzlarga asoslangan hikoya, qissa va romanlardagi bosh obraz umuminsoniy mazmuni bilan ajralib turadi. "Adabiy ijodda fikr, butun asarning to'qimasida ko'zga tashlanib turadigan san'atkor tuyg'usi badiiy obraz qanotlari sanaladi. Ijodkorning fikr va tuyg'usi badiiy obrazga o'ziga xos teranlik bag'ishlaydi"¹. Yuqorida sanab o'tilgan mualliflar romanlarining markaziy obrazlari individual tabiati bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Ularda yozuvchining fikri teran, shu bilan birga, voqelikni emotsional bo'yoqlarda, obrazli vositalar yordamida tasvirlashi etakchidir.

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida ko'tarilgan umuminsoniy muammolar, dunyoning holiga mos keladigan global masalalarning muhokama doirasiga tortilishi asar ustida jiddiy fikr yuritishni talab qiladi. Roman mavzusi juda keng va umuminsoniy xususiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bir masalani urg'ulash kerakki, "Boqiy darbadar" romanida dunyo adabiyotida ko'p asrlardan beri ishlanib kelinayotgan mavzuning yangicha, o'zbekona ruhda tasvirlash holati kuzatiladi. Bu holatning badiiy ifodasi adabiyotshunos mutaxassislar e'tiborini o'ziga jalb qildi.

Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov

1 М.Б.Храпченко. Горизонты художественного образа. - Москва.: "Художественная литература". 1986. -С.86.

boqiy darbadar obrazi dunyo badiiy adabiyotida dastlab o'n uchinchi asrda (1228 yilda tuzilgan "Katta xronika" kitobida) uchrashi va shu obraz qiyofasi turli adiblarning asarlarida borligini, xususan, rus adabiyotida Ilya Ilf va Evgeniy Petrovlarning "Oltin buzoq" romanida, Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romanida qisman ishora qilib o'tilganini ta'kidlaydi: "Ko'rib turganimizdek, obrazga munosabat va talqinlar juda turli-tuman. Talqinlarda Evropa romantizmi, ijtimoiy formatsiyalar va diniy qarashlarning ta'siri yaqqol sezilib turadi"². Olimning fikricha, boqiy darbadar obrazini yozuvchi o'ziga xos "o'zbekona qarash" asosida tasvirlaydi. Zero, romandagi tasvirlar, obrazlarga berilgan ismlar romanning o'zbek adabiyoti muhitida maydonga kelganini aniq ko'rsatib turadi. Shu ma'noda "o'zbekona qarash" ta'biri Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani tabiatiga juda mos keladi.

Aynan, boqiy darbadar obrazining dunyo adabiyotida uchrashiga doir e'tiborli fikrni filologiya fanlari doktori, professor Damin To'raev o'zining "Boqiy darbadar" romaniga bag'ishlangan "Falsafiy-sarguzasht roman" maqolasida alohida eslab o'tadi: "Jahon adabiyotida "boqiy darbadar" mavzusida bir qancha etuk romanlar, qissalar, hikoyalar bor. Ulardan eng etuklari mumtoz ingliz adabiyotida Charlz Metyurenning "Darbadar Melmot", fransuz adibi Ejen Syuning "Agasfer" romanlari, Luis Borxesning "O'lmaydigan odam" hikoyasi kabi asarlarni kitobxonlar yaxshi biladi. Lekin Isajon Sulton boshqacha yo'l tutadi. Uning romanidagi odam butun dunyoga hukmronlikni abadiylashtirish maqsadida G'arbdagi yashirin ilmiy markazlarda sun'iy insonni hosil qiladi, mukammal aql egasi bo'lgan o'lmas inson aqliy zakovati bilan bu olamni yaratgan Xudoning qudratini anglaydi va laboratoriyalarda klonlash Xudoga qarshi, gunoh ish deb, yovuz kashfiyotchilarning qafasidan qochib, mangu darbadarga aylanadi"³.

Adabiyotshunos ta'kidiga ko'ra, romanda ko'tarilgan muammo globallik kasb etadi. Chunki inson taqdiriga aralashish, sun'iy insonni yaratishga urinish, klonlashgan odamni jamiyatning turli jabhalariga aralashtirish – bu kabi fikrlar bugungi tez, shiddat bilan taraqqiy etgan dunyoda olimlar diqqatini o'ziga tortib kelayotgan global masalalar jumlasiga kiradi.

Romanda favqulodda e'tiborga tushadigan

va asarning boshdan oxirigacha kitobxon bilan yonma-yon yuradigan obraz kuzatilmaydi. Bu ham adibning globallashgan davr muammolarini o'z asarida aks ettirishining o'ziga xos bir uslubidir. Inson go'yo odamlar jamoasidan begonalashib, yolg'izlanib borayotgandek taassurot qoldiradi.

Boqiy darbadarlikka mahkum etilgan chol bu etikdo'zdir. Adib yozadi: "Samum odami degan afsonaviy odam, aslida, o'sha – duoibad etilgan va oxiri ko'rinmaydigan izdihomning bu dunyoga kelib ketishiga to'qiyomatga qadar guvoh bo'lishga (va o'zi ham ketishni orzu qilishga) mahkum etikdo'z ekani haqida rivoyatlar bor. Aslida, samum – Sahroi Kabirda esadigan va jon zoti borki, barini kuydirib-eritib halok qiladigan qaynoq shamol, biroq, aynan shu shamollar orasidan chiqib kelgani uchun ham arab badaviylari uni samum odami deb ataganlar"⁴.

"Boqiy darbadar" romani tarkibida keladigan "butunjahon Genetik tadqiqotlar assambleyasining faxriy a'zosi" professor Ziyo obrazi bevosita dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoniga aloqadorligi bilan ajralib turadi. Chunki uning ish faoliyati boqiy yashashga mahkum etilishi ko'zda tutilgan, maxsus laboratoriyalarda paydo bo'ladigan sun'iy odamning kelajagi, insoniyat kelajagi bilan bog'liq. Bunday sun'iy odamlar Gobi sahrosidagi Inson takomili markazi tadqiqotlarida, bevosita harbiy qismlarning maxsus nazorati va homiyligida vujudga keltiriladi. Agar sun'iy urchitilgan odam ommaviy ravishda ko'paytirilsa, ular tabiiy ravishda hayot kechirayotgan insonlar, turmushning mayda ikir-chikirlari ichra, ayni chog'da, o'z orzu-niyatlari bilan kun kechirayotgan odamlar taqdiriga zug'um qilishi ham mumkin. Shuning uchun Ziyoni bunday ulkan global muammolar o'ylantiradi. Isajon Sulton Ziyo obrazini dunyodagi ko'rgiliklar ustida tinimsiz fikr yuritayotgan odam sifatida ko'rsatadi. Professor Ziyo shunday o'ylaydi: "... Yana bir qancha vaqt o'tgach, dunyoda na vatan, na millat va na til tushunchasi qoladi. Bu jarayon balki allaqachon boshlanib ulgurandir? Yana qanchadir vaqt o'tib ro'y beradigan iqtisodiy va axborot xurujlaridan keyin mamlakatlarning chegaralari yo'qolib ketsa, boshqarish iplari to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'lga o'tsa, ya'ni, er yuzini qit'alararo shirkatlar boshqarsa-chi? Haqiqiy globallashuv ana shunday avj olsa, qaerda iqtisod gullab-yashnasa, odamlar o'sha erga to'plana boshlasa va vaqt-soati kelib, qadriyatlar emirilib-tamom bo'lsa-chi?.."

2 Расулов А. Мангулик суви. Исажон Султон насри бадияти. Тошкент: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2017. - Б. 62.

3 Тўраев Д. Фалсафий-саргузашт роман. Исажон Султон насри бадияти. Тошкент. "Turon zamin ziyo." 2017. -Б. 69.

4 Исажон Султон. Икки жилдик. 1 жилд. Тошкент: F. Ғулом., 2017. -Б. 92.

Bular–Professorni o‘ylantirayotgan noma‘lum taraqqiyot yo‘lining debochasi, bor-yo‘g‘i bir qismigina edi, xolos”⁵.

Aslida, insoniyat uchun qadim-qadimdan Vatan, millat, urf-odatlar, til kabi bir qancha umuminsoniy qadriyatlar juda muhim sanalib kelinadi. Agar bu tushunchalar o‘z mazmunini yo‘qotsa, er yuzida hayotning qizig‘i qolmasligi mumkin. Dunyodafaqatmoddiyat–kapitalhukmron bo‘lsa, buning oqibatida insonlararo munosabatlar tobora zaiflashib boraversa, alaloqibat odamzod ma‘naviy-ruhiy dunyosidan, ichki olamidan ajralib qoladi. Qadriyatlar barham topadi. Yozuvchini dunyoda sodir bo‘layotgan hodisalar fonida yuz beradigan aynan mana shunday savollar qiynaydi. Shuning uchun ham romandagi asosiy obraz bo‘lgan professor Ziyo “Haqiqiy globallashuv ana shunday avj olsa, qayerda iqtisod gullab-yashnasa, odamlar o‘sha yerga to‘plana boshlasa va vaqt-soati kelib, qadriyatlar yemirilib-tamom bo‘lsa-chi?..” deya chuqur mulohaza yuritadi. Yer yuzi aholisining noma‘lum taraqqiyot yo‘liga tushib qolishini professor Ziyo aslo istamaydi. Zotan, Isajon Sulton o‘z qahramoniga “nur, yorug‘lik, yorqin” ma‘nosini anglatadigan “Ziyo” degan ismni bejizga tanlamagan, albatta. Ziyo shu ismiga munosib ravishda nafaqat o‘z vujudiga, balki Zaminning holiga ham nazar soladi. O‘z kompyuteridagi turli tuman fazoviy xabarlarini o‘qishi asnosida qattiq tashvishga tushadi:

“Atlantikada bo‘ron shiddati zo‘raymoqda, uning tezligi soatiga ikki yuz ellik kilometr ga chiqdi. Ummon bo‘ylab shoshilinch holat e‘lon qilindi. Ko‘pchilik sohillarda ulkan girdoblar paydo bo‘lishi kutilyapti. Qutqaruv xizmatlarining butun kuchlari bo‘ron falokatlarining oldini olishga safarbar qilingan”.

“dunyoning turli mintaqalarida sahrolar kengayib bormoqda. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, Sahroi Kabir keyingi o‘n yil ichida o‘ttiz kilometr ga kengaygan. Xuddi shunday jarayon Osiyo cho‘llarida ham kuzatilmoqda. Mazkur cho‘llar qumining o‘ziga xos xususiyati – unda sho‘r miqdorining ko‘pligidir”.

“Ba‘zi din ulamolari jahannamning abadiy emasligiga doir taxminlarini e‘lon qildilar. Ular o‘z taxminlariga «Ular jahannamda abadiy qolurlar, magar Parvardigorlari boshqa narsani ixtiyor qilmasa...» mazmunidagi oyatlarni asos qilib oldilar...”

“...Yer yuzidagi eng sho‘r dengiz - Qizil dengizning Arabiston yarim oroli sohillariga yaqin erida, suv ostida chuchuk suvli ulkan buloqlar borligi aniqlandi. Bundan ikki ming yil avval paydo bo‘lgani taxmin qilinayotgan mazkur buloqlarning suvi g‘oyat toza va shifobaxsh bo‘lib, dengizning sho‘r suviga aralashib ketmasdan to sohilga qadar oqib boradi. Sohildagi turli sayyohlik shirkatlari bu suvlardan foydalanib, katta tijoriy loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqdalar...”⁶

Bunday ma‘lumotlar har kim uchun qiziq tuyuladi. Ammo yozuvchini tashvishga solayotgan global muammolar bevosita milliy-mahalliy hududlarga ham tegishli. Shuning uchun ham Ziyo o‘qiyotgan xabarlar orasida bevosita Markaziy Osiyoga tegishlilari ham bor. Beixtiyor Orol dengizi atrofidagi muhitni, u yerdagi tuz ko‘chimini, Orolning bir necha o‘n kilometrlarga torayib ketganligi kabi hodisalarni yodga soladi.

Professor Ziyo obrazi vositasida Er sharidagi tabiiy rivojlanishga insonlar tomonidan o‘tkazilayotgan xurujlar oqibatini anglayotgan, globallashuv zamonidagi yangi fikr va g‘oyalarga ega olim odamning obrazi sifatida qarash o‘rinlidir. Shuning uchun ham uni kutilmaganda paydo bo‘layotgan ofatlar, haddan tashqari kuchayib ketgan issiq yoki haddan tashqari kuchli shamollar tashvishga soladi. “...Uchish xizmati Atlantika ummoni ustida bo‘ron boshlanganidan xabar bergan edi. Oradan yarim soat o‘tmay, uning tezligi soatiga ikki yuz kilometr ga chiqqan va eniga taxminan besh yuz kilometrni enlagan g‘oyatda kuchli havo oqimi shiddat bilan quruqlik tomonga harakatlanmoqda edi. Professor Ziyo shamollarning hosil bo‘lish sabablarini yaxshi bilardi. Bu aslida, Yevropa, Xitoy va Mo‘g‘ulistondagi jazirama yoz tufayli ro‘y berdi. Yevropada qirq, Xitoyda qirq olti va Mo‘g‘ulistonda ellik ikki daraja harorat ikki haftadirki, turib qolgan, bu misli ko‘rilmagan ko‘rsatkich edi. Bugun kunduzi millionlab kub kilometr qaynoq havoning Avstraliya, Xitoy va Atlantika hududlaridan Gobi tomon siljiy boshlagani qayd etildi, tabiiyki, ummonlar va hatto mamlakatlar ustida bo‘ron va girdoblarning yuz berishi kutilayotgan, qurbonlarning oldini olish uchun ehtiyot choralari ham zudlik bilan ko‘rilayotgan edi”⁷. Yer ustida qaynoq havoning yopirilib kelishi, ummonlarning shopirilishi, bo‘ron va girdobning insoniyatga solib turgan xavfi – bular kundalik oddiy hodisalar emas. Ular birgina inson hayotiga emas, balki borliqni, tabiatni, jonzotlar

5 Ўша манба.-Б. 112.

6 Ўша манба.-Б. 128.

7 Ўша манба.-Б. 135.

olamini barbod qilish mumkin. Shunday pallada har bir oqil odamni xayolini zaminning kelajagi, avlodlarining taqdiri o'ylantiradi. Jumladan, professor Ziyo ham o'z zurriyodlarining taqdiriga befarq emas. Aynan shu sub'ektiv voqelikning umuminsoniy mohiyatini o'quvchiga anglatish uchun Isajon Sulton o'z romaniga Ziyo o'g'lining maktubini olib kiradi. Syujetda obrazlar muqim bir o'rinni egallar ekan, ularning ma'naviy-ruhiy holati syujetdagi modifikatsion shaklda kuzatiladi. Shu jumladan, "Boqiy darbadar" romanida ham asosiga ko'ra etakchi bo'lgan Ziyo obrazining ruhiy-psixologik dunyosi o'g'lining maktubi hisobiga boyitiladi. Maktub "Otajon!" degan murojaat shaklidan keyin quyidagi jumlar bilan boshlanadi: "... Bugun onamning xokisor va aziz qadamlarining izi qolgan hovlimizda ekanman, Parvardigori olamga imon keltirgan barcha kishilarning, avvalo, sizning va onaizorimning haqqiga ko'zlarimda yosh bilan duo qilgach, ushbu maktubni bitmoqdaman. Ota, siz avvalo – kimligim va nimaligim nomayon bo'lgan, bir burda nonimni na o'zim eya oladigan, na bir qultum suv icha oladigan holimda, yiqilsam tura olmay chirillab yig'laganimda, uzun kechalar-u kunduzlaringizni menga bag'ishlab, nimagaligini o'zim ham bilmay kulganimda quvongansiz, inijlik qilib yig'laganimda ko'zingizga dunyo tor bo'lgan, o'zingiz emay menga edirgan, ichmay menga ichirgansiz, oyoqqa qo'yib, tarbiyat bergansiz"⁸. Ziyoning o'g'li har jihatdan o'zini yaxshi bilgan, o'zligini, musulmonligini, Allohning bir bandai ojizi ekanini teran anglagan, berilgan ta'lim va tarbiya uchun o'z padari buzrukvori va onaizoridan mamnun bo'lgan bir farzanddir. O'g'il sharqona didaktikaning qoidalariga mos ravishda "otangga tik boqma, so'ziga so'z qaytarma, qarshisida qo'lingni qovushtirib, boshingni eg" ruhida tarbiya topadi. Maktub mazmunidan o'g'ilning komilligi har bir nafasida, xatning har bir satrida sezilib turadi. U o'z yaratilish borlig'iga nazar tashlar ekan, avvalambor, vahshiy qabilalar orasida emas, dinsiz-u insofsizlar orasida emas, mo'minlar mamlakati bo'lmish tuproqlarda binoga kelishimni ixtiyor qildi, abadiy muzliklar yoki sahro-yu cho'llarni emas, jannatmonand mana shu yurtni Vatan qilib berib, shu yurtda dunyoga kelishimni istadi va shukrona ruhda fikr yuritib, buning bir hikmati borligini sezib turadi.

O'g'il oxir oqibat qiyomat kunida bo'ladigan hodisalarni tasavvur qiladi. Tasavvurini maktubda ayon qila turib, bu dunyo ne'matlaridan bebahra emasligini, o'zi uchun Imon va Vatan tushunchalari naqadar azizligini aytadi; "Imon bilan Vatan" o'zaro birlashib ketganini bu holatni ruh bilan tana birligiga o'xshatadi. Komil farzand tasavvurida kimki "Ey Vatan" deb kurashgan, jon taslim qilgan bo'lsalar, ular faqatgina tuproq, uning ma'danlari uchun emas, balki imon uchun jon berganlar. Dunyo globallik sari yuz tutgan bir mahalda ota va o'g'il o'rtasidagi muloqotlarda bunday bebaho qadriyatlar ustida fikr yurtilishi ham globallashtgan davrdagi inson obrazining o'ziga xos individual jihatlarini namoyon qiladi. O'g'il o'z maktubida boqiy darbadar qismatiga yaqin tushunchalarga ham to'xtalib yozadi: "Insonlar uzoq umr ko'rishni istaydilar, lekin bu olamda uzoq umr mashaqqat va zahmatdan iborat ekanini ham yaxshi biladilar. Dunyoda uzoq muddat qolishni istaganlar tobora yaqinlashib kelayotgan keksalik zahmatlaridan qutulish yo'lini topolmaydilar. Topganlarida ham dunyoning o'zi bir kuni yo'q bo'lib ketishini idrok qilmaydilar"⁹.

Romanda tasvirlangan insonning zohiriy va botiniy olamidagi voqea-hodisalarning barchasi adibning nuqtayi nazari asosida birlashadi. Shu bilan birga, Ziyo obrazi – bu fikrlayotgan, tafakkurga ega, butun o'y-kechinmalari bilan insoniyat qismati ustida jon kuydirayotgan obraz sifatida gavdalanadi. Ziyoning o'g'li esa otasidagi tasavvurlarni qaysidir ma'noda to'ldiradi. "Boqiy darbadar" romanidagi ushbu obrazlarni falsafiy fikrlayotgan obrazlar sifatida baholash o'rinlidir.

Xulosa qilib aytganda, "Boqiy darbadar" romanidagi globallashtgan dunyoga munosabat bildirayotgan obrazlarning faolligini, fikrlayotganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Shu nuqtayi nazardan Ziyo va uning o'g'li tasavvur dunyosida kechayotgan o'ylar, fikr-mulohazalar har bir inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Garchand romanda bitta insonning taqdiri tasvirlanmagan bo'lsa ham, turli zamonlarda istiqomat qilgan turli insonlarning hayotidan olingan parchalar berilgan bo'lsa ham, umumkonsepsiyada "Boqiy darbadar" zamonaviy globallashtgan dunyoning metaforik obrazi sifatidan namoyon bo'ladi. Asarda tasvir ob'ekti uchun olingan barcha unsurlar romandagi obrazlar xususida shunday fikr yurtishga ham asos beradi.

⁸ Ўша манба.-Б. 132.

⁹ Ўша манба.-Б. 138.